JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA O'XSHATISHLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Shavkatova Fazila
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24041495

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining taniqli vakili Jamol Kamol she'riyatida qo'llangan o'xshatishlarning lingvistik va lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etiladi. O'xshatishlarning nazariy asoslari, semantik-struktur tarkibi, ifodalanish shakllari hamda badiiy matndagi estetik vazifalari yoritiladi. Shuningdek, an'anaviy va individual-muallif o'xshatishlarining o'ziga xos jihatlari, ularning poetik obraz yaratish, tasviriylik va emotsional-ekspressivlikni kuchaytirishdagi imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi. Shoir she'riyatidagi o'xshatishlarning mazmuniy qatlamlari va badiiy tafakkur bilan munosabati lingvopoetik tahlil asosida ochib beriladi.
Kalit so'zlar: Jamol Kamol, o'xshatish, lingvopoetika, badiiy matn, poetik obraz, qiyos, o'xshatish etaloni, semantik xususiyat, obrazlilik, badiiy tafakkur.

Аннотация: В данной статье исследуются лингвистические и лингвопоэтические особенности сравнений, используемых в поэзии известного представителя узбекской литературы Джамола Камола. Освещаются теоретические основы сравнений, их семантическая и структурная организация, формы выражения, а также эстетические функции в художественном тексте. Особое внимание уделяется специфике традиционных и индивидуально-авторских сравнений, их роли в создании поэтических образов, усилении изобразительности и эмоционально-экспрессивной выразительности.
Ключевые слова: Джамол Камол, сравнение, лингвопоэтика, художественный текст, поэтический образ, сопоставление, эталон сравнения, семантические особенности, образность, художественное мышление.

Abstract: This article examines the linguistic and linguopoetic features of similes used in the poetry of Jamol Kamol, a prominent representative of Uzbek literature. It explores the theoretical foundations of similes, their semantic and structural components, forms of expression, and aesthetic functions in literary texts. Particular attention is paid to the distinctive features of traditional and individual authorial similes, as well as their role in creating poetic imagery and enhancing descriptiveness and emotional expressiveness.
Keywords: Jamol Kamol, simile, linguopoetics, literary text, poetic image, comparison, standard of comparison, semantic features, imagery, artistic thinking.

KIRISH

Badiiy tilning obrazlilik, ta'sirchanlik va estetik imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim vositalardan biri o'xshatishdir. Insonning borliqni idrok etishi, predmet va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik hamda umumiy belgilarni anglash jarayoni tilde turli qiyosiy birliklar orqali

ifodalanadi. O‘xshatish ana shu tafakkur jarayonining badiiy nutqdagi namoyon bo‘lish shakli sifatida voqelikni obrazli tasvirlash, muayyan tushunchaning o‘ziga xos xususiyatlarini yorqinroq ochib berish va kitobxonda estetik taassurot uyg‘otishga xizmat qiladi. Shu bois o‘xshatishlarni tilshunoslikning semantik, grammatik va lingvopoetik yo‘nalishlari doirasida o‘rganish badiiy matnning mazmuniy hamda uslubiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi tilshunoslikda badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tadqiq etish, undagi til birliklarining estetik vazifasi, obraz yaratish imkoniyatlari va muallif individual uslubini shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘xshatishlarning semantik-struktur xususiyatlarini, ularning shakllanish asoslari va poetik kontekstdagi vazifalarini o‘rganish orqali ijodkorning obrazli tafakkuri hamda voqelikni badiiy idrok etish tamoyillarini anglash mumkin. Chunki har bir ijodkor o‘zining hayotiy kuzatishlari, estetik qarashlari va individual badiiy tafakkuriga muvofiq ravishda o‘xshatish vositalaridan foydalanadi. Natijada umumxalq tilida mavjud bo‘lgan an’anaviy o‘xshatishlar bilan bir qatorda o‘ziga xos muallifona qiyoslar ham yuzaga keladi. O‘zbek she’riyatida o‘zining badiiy tafakkuri, falsafiy mushohadalari va poetik ifoda imkoniyatlari bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biri Jamol Kamoldir. Shoir ijodida inson va tabiat munosabatlari, ruhiy kechinmalar, muhabbat, Vatan, mehnat, tarixiy xotira va hayot falsafasi o‘ziga xos obrazlar tizimi orqali ifodalanadi. Uning she’rlarida tabiat manzaralarining inson ruhiyati bilan uyg‘un tasvirlanishi, oddiy hayotiy hodisalarning poetik mazmun kasb etishi hamda rang, shakl, harakat va hissiy holatlarning qiyosiy munosabatlar asosida yoritilishi alohida e’tiborga loyiqdir. Bunday tasviriy xususiyatlarni yuzaga chiqarishda o‘xshatishlar muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Jamol Kamol she’riyatidagi o‘xshatishlarni tadqiq etish, avvalo, ularning qanday lingvistik birliklar yordamida shakllanishini, qaysi semantik belgilar asosida yuzaga kelishini va poetik matnda qanday estetik vazifa bajarishini aniqlashni taqozo etadi. Xususan, shoir ijodida qo‘llangan o‘xshatishlarning an’anaviy yoki individual-muallif xususiyatlarini belgilash, o‘xshatish etalonlarining mazmuniy guruhlarini aniqlash hamda ularning obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni yuzaga chiqarishdagi imkoniyatlarini ochib berish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu jihatlar shoirning individual poetik uslubini tavsiflash va uning badiiy-estetik qarashlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Jamol Kamolning “Tun chorlaydi” she’ridagi “Tun - qora qosh, barno kelinchak” misrasi o‘xshatishning obraz yaratish imkoniyatlarini namoyon etuvchi poetik ifodadir. Shoir mazkur misrada tun manzarasini inson, ya’ni qora qoshli, go‘zal va navqiron kelinchak obraziga yaqinlashtiradi. Natijada tabiat hodisasi inson qiyofasida tasavvur qilinib, tungi manzaraning o‘ziga xos estetik talqini yuzaga keladi. Ushbu misrada shoir qora rangni shunchaki qorong‘ilik belgisi sifatida emas, balki ayol go‘zalligining muhim estetik unsuri sifatida talqin qiladi. Shu tariqa rang va tashqi ko‘rinish o‘rtasida poetik munosabat shakllanadi. Ushbu ifodada o‘xshatish bilan bir qatorda jonlantirish va metaforik ko‘chish belgilari ham kuzatiladi. Chunki insonga xos qiyofa va sifatlar jonsiz tabiat hodisasi - tunga ko‘chirilgan. Shoirning badiiy mahorati shundaki, u tungi manzarani oddiy peyzaj tasviri darajasida qoldirmay, uni go‘zal kelinchak timsolida gavdalantiradi. Shoirning “O’zbekiston tuni” she’rida ham badiiy tasvirning o’ziga xos shakli namoyon bo’ladi:

Bu yurtda shukuhi, ko’rkini bir-bir,

Tunlarga bag’ishlar qaynoq kunduzlar.
Elimning behisob armonlaridir,
Samoga sochilgan million yulduzlar.

Mazkur poetik ifodada “armon” va “yulduz” tushunchalari o‘rtasida mazmuniy munosabat shakllantirilgan. Odatda yulduzlar osmonning cheksiz kengligida tarqalgan yorug‘lik manbalari sifatida tasavvur qilinadi. Shoir esa ushbu tabiiy manzarani xalqning behisob orzu-armonlari bilan uyg‘unlashtiradi. “Million yulduzlar” birikmasi miqdoriy ko‘plikni ifodalash bilan birga, xalqning orzu-istaklarining nihoyasizligi va keng qamrovini ham anglatadi. Misrada “samoga sochilgan” birikmasi alohida poetik vazifa bajargan. “Sochilmoq” fe’li odatda muayyan predmetlarning turli tomonga tarqalishini anglatadi. Shoir ushbu harakatni yulduzlar tasviriga tatbiq etib, osmon manzarasining jonli va keng ko‘lamli ko‘rinishini yaratadi. Bu o‘rinda “million” so‘zi xalq orzu-armonlarining behisobligini ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Yulduz obrazi esa yorug‘lik, umid va yuksaklik kabi ramziy ma’nolarni uyg‘otadi. Shoir mazkur misralarida tabiat manzarasi bilan xalqning ichki ruhiy olami o‘zaro uyg‘unlashtirgan. Jamol Kamol she’riyatida hayvon obrazlari vositasida o‘xshatishning ifodalanishi ham uchraydi.

Shodlik- o’ynoqi ohu, arslondir- g’azab,
Loqaydlik- sovuq va qo’rqinch bir ilon.
U loqayd olamga boqar betaraf,
To’yda ham azada birday sovuqqon.

Ushbu parchada inson ruhiyatiga xos turli hissiy holatlar hayvonot olamiga mansub obrazlar vositasida ifodalangan. Shoir shodlik, g’azab va loqaydlik kabi mavhum tushunchalarni ohu, arslon va ilon obrazlari bilan bog’lash orqali ularning mazmunini konkretlashtirgan. Parchada ohu, arslon va ilon obrazlarining tanlanishi tasodifiy emas. Ular inson ruhiyatidagi uch xil holatni ifodalovchi semantik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi: ohu - shodlik, nafislik va jo‘shqinlik; arslon - g‘azab, kuch va shiddat; ilon - loqaydlik, sovuqlik va xavf. Jamol Kamolning “Bir tup jonon o‘rik” she’ridan olingan quyidagi bandda tabiat manzarasini obrazli ifodalashda o‘xshatishning o‘ziga xos imkoniyatlari namoyon bo‘ladi:

Chorbog’chani nur va soyalar o’rar,
Tunning ola-chalpoq qorong’isida.
Cho’pon gulxaniday cho’g’lanib turar,
Bir tup jonon o’rik oy yog’dusida.

“Cho‘pon gulxaniday cho‘g‘lanib turar” misrasida o‘rik daraxtining tungi manzaradagi ko‘rinishi cho‘pon gulxaniga qiyoslangan. Bu o‘rinda -day qo‘shimchasi ikki predmet o‘rtasidagi qiyosiy munosabatni bevosita ifodalagan. Shu jihatdan mazkur misra grammatik jihatdan shakllangan ochiq o‘xshatish namunasidir. Birinchi misradagi “nur va soyalar o‘rar” ifodasi yorug‘lik va qorong‘ilikning o‘zaro almashinib turishini tasvirlaydi. “Ola-chalpoq qorong‘ilik” birikmasi esa tun manzarasining bir tekis emas, yorug‘lik va soya aralashgan holatini ifodalaydi. “Bir tup jonon o‘rik” birikmasidagi “jonon” so‘zi daraxtga insonga xos go‘zallik va maftunkorlik xususiyatlarini yuklaydi. Shunday qilib, bandda o‘xshatish, metafora, jonlantirish va sifatlash kabi badiiy vositalar o‘zaro uyg‘unlashgan. Bundan tashqari, Jamol Kamol she’riyatida “Vaqt- bolg’adir do’stim, odamzod- ma’dan”, “Hey, temir qal’adek bardoshim mening!”, “Daraxtlar vazmin boshi samoga tirgak, Ular- tun soqchilari, unsiz va sergak”, “Ma’sum bolaligim- hurkak nigohim, Olis bir yulduzsan endi men uchun”,

“Hasratlarim- qon yalagan kalxatlar” va “Yiroq ketgan bolalaring ma’zur tut, Ular- zumrad dalalarning gadoyi” kabi o’xshatishlarning yorqin namunalarini ko’rishimiz mumkin.

XULOSA

Jamol Kamol she’riyatida o‘xshatishlar shoirning borliqni obrazli idrok etishi, inson ruhiyati va tabiat hodisalarini o‘zaro uyg‘unlikda tasvirlash mahoratini namoyon etuvchi muhim lingvopoetik vositalardan biri hisoblanadi. Shoir o‘xshatishlar orqali oddiy hayotiy hodisalarga yangicha badiiy mazmun yuklaydi, mavhum tushunchalarni aniq obrazlar vositasida gavdalantiradi hamda kitobxonning estetik tasavvurini boyitadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shoir ijodida o‘xshatishlar faqat tashqi o‘xshashlikni ifodalash bilan cheklanmaydi. Ular rang, shakl, harakat, ruhiy holat, hissiy taassurot va ramziy ma’nolar asosida shakllanib, poetik obrazning mazmuniy qatlamlarini kengaytiradi. Ayniqsa, tabiat hodisalarini inson kechinmalari bilan, inson ruhiyatini esa tabiat va hayvonot olamiga xos belgilar bilan bog‘lash shoirning individual badiiy tafakkurini namoyon etadi. Shuningdek, o‘rganilgan misollar o‘xshatish va metafora o‘rtasidagi munosabatni farqlash zarurligini ham ko‘rsatdi. Shoir she’riyatida “-day” kabi grammatik vositalar orqali shakllangan ochiq o‘xshatishlar bilan bir qatorda, maxsus ko‘rsatkichsiz, metaforik tenglashtirish asosida yuzaga kelgan yashirin qiyoslar ham uchraydi. Bu holat o‘xshatishlarni faqat shakliy belgilar asosida emas, balki semantik va kontekstual xususiyatlari asosida ham tadqiq etish lozimligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, Jamol Kamol she’riyatida o‘xshatishlar obrazlilikni kuchaytirish, mavhum tushunchalarni konkretlashtirish, poetik tasvirning emotsional-ekspressiv ta’sirini oshirish va muallifning estetik qarashlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ularning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish shoirning individual uslubini chuqurroq anglash, o‘zbek she’riyatida obrazli tafakkur va badiiy ifoda imkoniyatlarini ilmiy jihatdan baholash uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamol Kamol. Qadah. –Toshkent, 1980.
2. Qo’chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. –Toshkent, 1975.
3. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. –Toshkent: Fan, 1990.
4. Yo’ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent: Fan, 2008.
5. Yo’ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –Toshkent, 2010.
6. www.ziyouz.comkutubxonasi